



## OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI HUQUQLARI

Oripova Mexriniso Murodjonovna

Buxoro viloyati yuridik texnikumi

"Umumta`lim fanlar" kafedراسi mudiri

**Annotatsiya:** Maqolada ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta`sirchan mafkura vositasi ekanligi, oxirgi paytlarda informatsion xurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning o`zgarganligidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol axborotdir. Bunday qurol yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda insonning ongi va qalbi nishonga olinishi, internetdan foydalanish, bugungi kunda dunyoda terroristlar foydalanigan internet saytlar to`satdan paydo bo`lishi, axborot xurujlari hamda ularga qarshi kurashish yo`llari haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Ommaviy axborot vositalari (televideniye, kompyuter, Internet, uyali telefon), axborot, globallashuv, matbuot, qonun

**Аннотация:** В статье средства массовой информации являются важнейшим, мощным и действенным средством идеологии, а тот факт, что в последнее время часто организуются информационные атаки, свидетельствует об изменении отношения к войне, открыт новый вид оружия. Это оружие - информация. В информационных войнах, проводимых с помощью такого оружия, мишенями являются разум и сердце человека, использование сети Интернет, внезапное появление в современном мире интернет-сайтов, используемых террористами, информационные атаки и способы борьбы с ними. их описывают.

**Ключевые слова:** СМИ (телевидение, компьютер, Интернет, мобильный телефон), информация, глобализация, пресса, закон.

**Abstract:** In the article, the mass media is the most important, powerful and effective means of ideology, and the fact that information attacks are often organized recently indicates that the attitude towards war has changed, and a new type of weapon has been discovered. This weapon is information. In the information wars carried out with the help of such weapons, the mind and heart of a person are targeted, the use of the Internet, the sudden appearance of Internet sites used by terrorists in the world today, information attacks and ways to fight against them are described.

**Keywords:** mass media (television, computer, Internet, mobile phone), information, globalization, press, law

### KIRISH

Bugungi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarmoqda. Barcha sohalarda axborot olish va uni yetkazish, ta'sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish zaruratga aylangan. Bunday murakkab sharoitda hayot yangidan-yangi talab va vazifalarni oldimizga qo'yimoqda. Ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasidir. Chunki



ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi.

#### METODOLOGIYA

Darhaqiqat, «bugun dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar yaratildi va yaratilmoqda. Axborot terqatishning globallashuvi, ya'ni ularning butun kurrai zaminni qamrab olish jarayoni shiddat bilan davom etyapti. Aslida axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarining o'zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniyat boyliklarni o'zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir». Axborotlashgan jamiyat shakllanishining ijobiy jihatlarni, axborot taraqqiyotining bosh omiliga aylanganini inkor etmagan holda, aytish lozimki, mutaxassislar bu jarayon bilan bog'liq quyidagi qator salbiy tendentsiyalarni qayd etishadi: «- Ommaviy axborot vositalarining (ayniqsa reklamaning) jamiyatga haddan ziyod qaram qiluvchi (zombillashtiruvchi) ta'siri; — axborot texnologiyalaridan foydalangan holda odamlarning shaxsiy hayotiga va tashkilotlarning xususiy faoliyatiga noma'qul aralashuvi, Internet orqali xakkerlik. — axborotlashgan jamiyat muhitiga moslashishning murakkabligi; — «axborot elitasi» bilan oddiy iste'molchilar o'rtasidagi aloqalarning uzilish xavfi va hokazo».

Har bir kashfiyot ishi odamga, jamiyatga keltiradigan foydasi bilan birga ba'zan boshqa salbiy oqibatlarni xam keltirib chiqarishi mumkin. Ammo, axborot texnologiyalari bilan unumli va maqsadli shug'ullanish katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari dunyoni birlashtirish va global axborotlashgan jamiyat barpo etishga xizmat qiladi va bu o'z navbatida, xalqlarning o'zaro yaqinlashishiga yordam beradi.

#### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan mustahkam huquqiy asos yaratilgan. Uning tobora takomillashib borishi, shubhasiz, soha taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Ommaviy axborot vositalari imkoniyatlarining yanada kengaygani, Internet-jurnalistikaning tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgani, ayni paytda mamlakatda olti mingdan ortiq sayt mavjudligi, ular orasida gazeta va jurnallar, axborot agentliklarining ham elektron versiyalari borligi fikrimizning yorqin dalilidir. Mamlakatimiz Prezidenti Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining normativ huquqiy bazasini takomillashtirish masalasiga alohida to'xtaldi. Axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy etish, axborot kommunikatsiya



texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, jurnalistlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, milliy matbuotimizning sifatini, mahorat va ta'sirchanligini rivojlangan davlatlarning ommaviy axborot vositalari erishgan yuksak talab, mezonlar darajasiga bosqichma-bosqich ko'tarishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni yaratish vazifalarini ustuvor qilib qo'ydi.

Ta'kidlash kerakki, bu parlament zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Ayni paytda, siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari o'z dasturiy g'oyalardan kelib chiqib, mazkur masalada qarashlarini ilgari surmoqda. Shu o'rinda biz O'zLiDeP vakillarining ayrim nuqtai nazarlarini va fikrlari bilan kelisha olmasligimizni ta'kidlamoqchimiz. Masalan, ularning OAVni liberallashtirish, yirik mediakorporatsiyalar, mediaxoldinglar tashkil etish to'g'risidagi fikrlarini olaylik. «Rivojlangan mamlakatlar allaqachon shunday yo'l tutishgan. Demak, biz ham shunga o'tishimiz kerak. Qolaversa, bozor munosabatlariga o'tishning o'zi shuni taqozo etayapti», deb ular o'z fikrlarini isbotlashga urinishlari mumkin. To'g'ri, rivojlangan mamlakatlarda yirik mediakorporatsiyalar, mediaxoldinglar faoliyat ko'rsatadi.

Ammo, masalaning ikkinchi jihatini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Modomiki, biz ommaviy axborot vositalarimizni rivojlangan davlatlar OAV darajasiga olib chiqmoqchi ekanmiz, ularning tajribasini, yutuq va kamchiliklarini haqiqatan ham chuqur o'rganishimiz talab etiladi. Bugun OAV rivojlangan, liberallashtirilgan, xususiy nashrlar ko'p bo'lgan mamlakatlardagi axborot tarqatish usullari va mas'uliyati qay darajada ekani hamda buning yaxshi-yomon tomonlaridan xulosa chiqarib olmog'imiz kerak. Ko'pgina mutaxassislar AQSh, Yevropa, Osiyo va Afrikaning qator mamlakatlarida yuzaga kelgan ma'naviy inqiroz o'sib kelayotgan avlod taqdiriga tahdid solayotganiga aynan OAVni ayblashmoqda. Hech kimga sir emas, xususiy nashr yoki telestudiya egasi avvalo ko'proq foyda ko'rishni o'ylaydi. Pul topish va boylikka mukkasidan ketgan ayrim OAV egalari hech narsadan tap tortmayotganiga ham ko'plab misollar keltirish mumkin. Bizda ma'naviyat masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Qizlarimizning hayoli, iboli bo'lishi, yigitlarimizdagi oriyat, g'urur eng oliy qadriyatlarimizdan hisoblanadi. Ota-ona va farzand, ustoz va shogird o'rtasidagi o'ziga xos fazilatlar, yoshlarning qariyalarga hurmati — bular hammasi biz asrab-avaylaydigan milliy qadriyatlarimiz-ku. Ammo tashkil etiladigan korporatsiya va xoldinglar biznes maqsadlarini birinchi o'ringa qo'yib, axborot tarqatishni pul topishning asosiy manbaiga aylantirib olsa, istagan axborotini, ayniqsa shov-shuvli, odamlar orasiga nifoq soladigan, milliy manfaatlarimizga zid xabarlarini tarqata boshlasa buning oqibati yaxshilikka olib kelmaydi.

Ana shu mulohazalarni hisobga olib, biz axborot tarqatish sohasida raqobatni rivojlantirish bilan birga, bu borada mas'uliyatni oshirish, axborotning ishonchli manbasini yaratish masalasini ilgari surayapmiz. OAVni liberallashtirish jarayonida ijtimoiy-siyosiy nashrlar, radio va telekanallar faoliyatini takomillashtirish hamda ularni qo'llab-quvvatlashning maqbul mexanizmlarini yaratish tarafdorimiz. Bizning fikrimizcha, OAV nafaqat axborot tarqatuvchi tizim, ayni chog'da xalqimizning ma'naviyati va madaniyatini yuksaltirish, milliy g'oyani o'sib kelayotgan avlod ongiga singdirish, ular qalbida Vatanga muhabbat



tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, faoliyatini takomillashtirish masalalariga liberallarcha yondashadigan bo'lsak, ya'ni ular aytayotgandek, o'ngu so'lga qaramay OAVni liberallashtirishga kirishib ketsak, ertaga qator muammolarga duch kelishimiz mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalariga bevosita kompyuter texnologiyalarini, Internet, multimediani kirishini yaxshi bilamiz. Ommaviy Axborot vositalarining har bir sohasida ushbu texnologiyalar faoliyatini yaqqol ko'rish mumkin: Masalan, Nashriyotda zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rnini, har bir bosma nashrda ko'ramiz. Ilgari gazeta va jurnallarning sahifalanishi bosmaxonalarda maxsus terish dastgohlari orqali amalga oshirilgan bo'lsa, hozirda gazeta va jurnallarda chop etiladigan maqolalarni tahrir qilishdan tortib, maketlashtirish, sahifalashtirish kabi butun boshli jarayonlar kompyuterda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, har bir nashrning o'z elektron manzili, o'z saytiga ega bo'lishi natijasida «elektron gazetalar» on-line nashrlari tushunchasi yuzaga keldi.

#### XULOSA

Haqiqatdan ham, axborot texnologiyalarning takomillashib borishi barcha sohalar qatori milliy jurnalistikamizni rivojlanishida katta samara bermoqda. Axborot jurnalistlar faoliyatining asosiy manbai hisoblansa, axborot texnologiyalari esa bevosita uzatish, yetkazish vositasi sifatida jurnalistning yetakchi quroliga aylandi. Hozirgi kunda ta'lim sohasida o'qitishni avtomatlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Afsuski, ta'lim jarayonini avtomatlashtirish hamma sohalarga taalluqli deb bo'lmaydi. Ayniksa, jurnalistika sohasida hali ham an'anaviy dars o'tish usullaridan keng foydalaniladi. Axborot texnologiyalari jurnalistning axborot uzatishda vositasi ekan, nega undan samarali foydalanmasligimiz kerak? Axir hozir bunga imkoniyatimiz borku?! Jurnalistika sohasida nazariya va amaliyot bir-biridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Hozirda ham shu an'anani saqlagan holda, dars jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, mashg'ulotlarni tashkil etish katta ijobiy natijalarga olib keladi.

#### ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi" 2021-yil
2. Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonuni, 15.01.2007 yildagi O'RQ-78-son
3. "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (Manba: uza.uz)-2019
4. Mirziyoyev Sh.M. "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni" bayram tabrigidagi nutqi. T.: - 2019.